

## **Realibitatsiya turlari: mazmuni va mohiyati (axloqsiz bolalar misolida)**

Charos Baxtiyor qizi Mustafoyeva

Mavluda Oybek qizi Madibekova

Ilmiy rahbar: S.Xaydarov

Toshkent texnologiya va menejment kommunikatsiya instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada realibitatsiyaning mazmun mohiyati, turlari, ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyaning ahamiyati, amaliy chora-tadbirlarning qo'llanilishi va natijalarning kafolatli bo'lishini ta'minlaydigan say haraktalar va axloqsiz bolalarning ijtimoiylashuvda tarbiyalovchi funksiyasi bolani atrof - muhitga kirishishi, ta'lim tarbiya jarayonida adaptatsiya, ijtimoiylashtirish jarayonini amalga oshirishni ko'zda tutadi

**Kalit so'zlar:** realibitatsiya, ijtimoiy-pedagogik realibitatsiya, ob'yektiv va sub'yektiv, profilaktika, korrektsiya, axloqsiz xulq, xavf guruhlari, ichki va tashqi omillar, xulq-atvor, hamkorlik, individual yondashuv

## **Types of rehabilitation: content and essence (in the case of naughty children)**

Charos Bakhtiyor kizi Mustafoyeva

Mavluda Oybek kizi Madibekova

Scientific supervisor: S.Khaidarov

Tashkent Institute of Technology and Management Communication

**Abstract:** In this article, the essence, types, importance of social and pedagogical rehabilitation, the application of practical measures and efforts to ensure the guarantee of results, and the educational function in the socialization of immoral children, the introduction of the child into the environment, education and upbringing during the process, it envisages the implementation of the process of adaptation and socialization

**Keywords:** rehabilitation, socio-pedagogical rehabilitation, objective and subjective, prevention, correction, unethical behavior, risk groups, internal and external factors, behavior, cooperation, individual approach

Jamiyatimizda doim faol, o'z ustida ishlab tinimsiz harakatlar natijasida yuksak yutuqlarga erishayotgan yoshlarimiz ko'pchilikni tashkil etmoqda. Biroq, biz

tanganing ikkinchi tomonini ham chetda qoldirmasligimiz lozim. Har bir yosh avlodni hayotiy faoliyati davomida muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy hislatlar, uning jamiyat integratsiyasiga yordam beruvchi faol hayot pozitsiyasini shakllantirishga, ijobiy rollar, jamiyatda xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishga, o'ziga nisbatan ishonchini oshirishga xizmat qiladigan chora tadbirlarni o'z vaqtida qo'llay olishimiz biz pedagoglarning zimmasidadir. Shunday chora tadbirlardan biri - Realibitatsiya chora tadbirlarini amalga oshiramiz. Reabilitatsiya - bu bola shaxsining huquqi, huquqiy statusi, sog'ligi, ishga layoqatsizligini tiklashga qaratilgan kompleks, ko'p darajali, bosqichli va dinamik tizimdir. «Reabilitatsiya» tushunchasining kelib chiqishi tibbiyotda yotadi va u salomatlikni mustahkamlash mazmuni bilan yondashuvga muvofiq, reabilitatorning ijtimoiy hayotining faolligini, funktsionalligini oshirishga, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy reabilitatsiya chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan jamiyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida o'zaro bog'liq jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi, huquqiy, psixologik, pedagogik va tibbiy xarakterga. Reabilitatsiya - bu bola shaxsining huquqi, huquqiy statusi, sog'ligi, ishga layoqatsizligini tiklashga qaratilgan kompleks, ko'p darajali, bosqichli va dinamik tizimdir. Axloqida og'ishlar bo'lgan deviant xatti-xarakatdagi bolalar va o'smirlarga nisbatan profilaktika, reabilitatsiya va korrektsiya ishlari amalga oshiriladi. Profilaktika - bu reabilitatsiya tizimidagi shaxsning rivojlanishidagi u yoki bu chekinishlarni yo'qotishga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tadbirlardir. U ko'proq ijtimoiy muhit bilan bog'liqdir. Korrektsiya - bu hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyat hisoblanadi.. Ijtimoiy reabilitatsiya deganda shaxsning ijtimoiy va oilaviy muhitda mustaqillikni tiklash jarayonida mustaqil yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayoni alohida ta'kidlashimiz zarur. Axloqida o'zgarish bo'lgan o'smirlarning ijtimoiy - pedagogik reabilitatsiyasi reabilitatsion markaz deb nomlanuvchi ixtisoslashgan muassasalarda amalga oshiriladi.. Ushbu yo'nalishdagi reabilitatsiya jarayoni bolaning hayotida sodir bo'layotgan voqealarga munosib munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Reabilitatsion dastur har bir bola uchun individual tuzilib, faoliyatning asosiy elementlari - maqsadi, vazifasi, shakllari, vositalari, bosqichlarini o'zida mujassam etadi. Shuni alohida ta'kidlash muhimki, ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya ob'ektlari ma'lum sabablarga ko'ra o'zlarining ijtimoiy faolligiga hissa qo'shadigan ko'nikmalarini yo'qotgan bolalardir. Shu munosabat bilan fanda ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya bolani ijtimoiy, huquqiy, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z ichiga olgan zamonaviy qadriyatlar tizimiga maqsadli ijtimoiy-pedagogik moslashtirish jarayoni sifatida qarash mavjud. Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyani bolalarga jamiyat bilan munosabatlarni o'rnatishga, jamiyatda bolaning mavqeini shakllantirishga yordam beradigan pedagogik tadbirlar majmuasi sifatida ko'rib chiqish g'oyalari mavjud. Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyaning

mohiyatini aniqlash ichki va tashqi omillar nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Ichki omillar nuqtai nazaridan tushunish bolaning mavjud ichki resurslarini aniqlashga, buzilgan psixofizik va ijtimoiy funksiyalarni, jamiyatdagi mavqeini tiklash, tuzatish, faol ijtimoiy yo'naltirilganligini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil qilishni nazarda tutadi. Ya'ni, hayotiy pozitsiya va ijtimoiy tajribani shakllantirishga yordam berish, qiyin hayotiy vaziyatlarni hal qilishda yordam berishga qodir munosabatlar. Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya muammosi bo'yicha olib borilgan pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilib, ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya muhim ta'lim-tarbiyaviy jarayon ekanligi to'g'risida tushunchalarga ega bo'ldik. Shu nuqtai nazardan tushunish, birlik va o'zaro aloqadorlikdagi pedagogik, ijtimoiy ta'sirlarning maqsadga muvofiqligini, yaxlitligini ta'minlaydi, barcha reabilitatsiya subyektlarining hamkorligini shakllantiradi, bu esa ish natijalariga sifat jihatidan ta'sir qiladi. Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyani natija sifatida ko'rib chiqish ham jarayonning mohiyatini tushunishimiz uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya jarayoni o'spirinlarda tashqi omillarning salbiy ta'siriga qarshi turish qobiliyatini oshiradigan va xulq-atvorning ijtimoiy buzg'unchi shakllarining ehtimoliy rivojlanishini tenglashtiradigan individual, ijtimoiy xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Reabilitatsiyaning asosiy sub'ekti ijtimoiy pedagog bo'lib, u yuqorida sanab o'tilgan funksiyalarni bajara olishi, o'smirlar va bolalarga psixologik yordam ko'rsata olishi zarur. Deviant xulq-atvori ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish - bu sog'lig'i, aqliy farovonligi, xatti-harakatlarining yo'nalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmuasi asosida buzilgan ijtimoiy aloqalarni tiklashga qaratilgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni va munosabatlarni o'rnatish muhimdir. Xulq-atvori buzilgan bolalarni reabilitatsiya qilish ularni jismoniy, aqliy va axloqiy salomatlikni tiklash jarayoniga qo'shishni, shuningdek, uning xatti-harakatlariga biologik va ijtimoiy omillar ta'siri ostida bolaning ijtimoiylashuvi mexanizmlarini yangilashni o'z ichiga oladi. Qarovsiz qolgan bolalarni reabilitatsiya qilish jarayoni ularni faol ijtimoiy sub'ekt maqomiga qaytarishga, ijtimoiy me'yorlarga zid bo'lmagan shaxsiy fazilatlarni, hayotdagi faol pozitsiyani, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini, jamiyatda ijtimoiy maqbul xatti-harakatlar qoidalarini rivojlantirishga qaratilgan. Axloqi xafv ostida bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish reabilitatorga bolaning huquqiy layoqatini, uning shaxsiy faoliyatini tiklashga va uning imkoniyatlarini yangilashga qodir bo'lgan bunday pedagogik ta'sirlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish jarayonining mohiyatini aniqlashning ilmiy yangiligi shundaki, u o'zining ob'yektga yo'naltirilganligini kengaytiradi, moslashuvning ijtimoiy xavf omillarini bartaraf etishda bolaning o'z resurslarini faollashtirishni o'z ichiga oladi. Jamiyatimizda axloqsiz, hulqida og'ishlar bo'lgan bolalar bilan realibitasion ishlash mobaynida

bolaning ijobiy fazilatlarini yuksaltirish va bolaga nisbatan uning xatti-harakatlariga nisbatan sabr-toqat qilib hamkorlikda birlashib ish tutish va uning jamiyatdagi o'rnini topishida qo'llab quvvatlash muhimdir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, realibitatsiya jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmagan bolalar uchun jamiyatdagi faol hayotga va ijtimoiy foydali mehnatga qaytarish maqsadidagi chora-tadbirlar tizimining muhim me'zonidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akatov.L.I Bolalar ijtimoiy realibitاسiyasi .1994.
2. Nodira Egamberdiyeva "Ijtimoiy pedagogika" 2009.
3. K.Turg'unov, M.Tolibov "Ijtimoiy pedagogika asoslari. 2008.
4. I.Oxunov Ijtimoiy pedagogika asoslari. 2008.
5. M J. Mutalipova "Xalq pedagogikasi". 2015.
6. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
7. Khaydarov S, A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).
8. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652>
9. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
10. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).